



# **“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”**

mavzusidagi respublika uchinchi  
ilmiy-amaliy anjumani materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT  
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA  
OSHIRISH MARKAZI**

**“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”**

mavzusidagi respublika uchinchi ilmiy-amaliy anjumani

**Toshkent – 2023**

**UO‘K: 494.375**

**KBK: 81.633.1**

**D 26**

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam /  
Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 334 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika uchinchi ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

**Mas’ul muharrirlar:**

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, professor

**Tahrir hay’ati:**

I.Azimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O.Jamoldinova, pedagogika fanlari doktori, professor

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori

M.Umirzoqova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

N.Ahmedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

U.Rahimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

S.Ahmedov, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

N.Quldashvili, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

© Davlat tilida ish yuritish asoslarini  
o‘qitish va malaka oshirish markazi

ISBN 978-9910-9416-6-5

© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

“Kamtar-neo”, “Saidkamol konsalt”, “Munavvar market”, “Amirsaid-lyuks” (mas’uliyati cheklangan jamiyatlar), “Ruhsalis”, “Dayel world” (xususiy korxonalar), “The one”, “Mister kebab”, “Grill”, “Somsa sity”, “Tri apelsina”, “Arbuz”, “Triumf”, “Prestij” kabi xizmat ko‘rsatish shaxobchalari nomlari savlat to‘kib turibdi. Milliy tiliga mehr-muhabbati bor insonlarning bunday atamalarni o‘qib dili xufton bo‘lishi aniq. Chunki hech bir aqlli farzand o‘z onasining kamsitilishiga, uning behurmat qilinishiga bee’tibor qarab turolmaganidek, o‘z milliy tilining cheksiz imkoniyatlaridan foydalanmay, ajnabiy so‘zlarning iste’moliga ruju qo‘ygan millatdoshlarimizning harakatlarini ham oqlamaydi. Zero, ona tilga hurmar bu – onaga hurmat, ona tilga sadoqat bu – onaga sadoqat, ona tilga muhabbat bu – kindik qoning to‘kilgan Vatanga muhabbat, ona tilga ehtirom bu – ajdodlarimizning ruhiga ehtirom. Hech bir farzandning onasini, Vatanini, ajdodlari ruhini hurmatsiz qilishga haqi yo‘q.

### **Sukut – nutqiy muloqotning nolisoniy vositasi**

**Yuldasheva Dilorom,**

pedagogika fanlari nomzodi, professor,  
yuldasheva21dilorom@gmail.com

**Annotatsiya.** Nutqiy muloqot fikr bayon qilish jarayoni bo‘lib, shubhasiz, ko‘p holatlarda lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og‘zaki shaklda moddiy voqelanishi bilan bog‘liq. Lekin lisoniy birliklarning voqelanishi bilan bog‘liq bo‘lmagan muloqot turlari ham oz emas. Shunga ko‘ra lisoniy vositalarning moddiy shaklda voqelanmagan muloqot turlari so‘zsiz muloqot deb baholanadi. Shunday nutqiy muloqot ko‘rinishlaridan biri sukutdir. Sukutda ichki nutqning yuzga yaqin ma’nolari voqelanishini kuzatish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** nutqiy muloqot, lisoniy omillar, nolisoniy omillar, verbal va noverbal, sukut

Nutq o‘ziga xos sistema bo‘lib u faqat lisoniy birliklarning o‘rinli va vaqtda voqelanishinigina ta’minlash bilan kifoyalanmaydi. Nutqda bunyodkorlik, lisoniy hodisalarga xos imkoniyatlarni nolisoniy birliklar orqali ifodalash, qo‘shimcha qilish, lisoniy hodisalar sirasini to‘ldirishga xizmat qila olish kabi xususiyatlarga ham ega. Zero, bugun o‘zbek tilshunosligida nutqiy jarayonni tadqiq etish, o‘rganish *amaliy tilshunoslik* nomi ostida olib borilmoqda. Tilshunoslik pragmatikasi

(amaliy tilshunoslik) lisoniy va nolisoniy birliklarining faoliyatini hayotiy kommunikativ jarayonlarda o'rganishni taqozo etadi. Tadqiqotchilar qiziqish doirasiga muloqotning turli jihatlari bilan bog'liq muammolar kiradi. Bunday muammolardan biri sukutni kommunikativ hodisa sifatida o'rganishdir.

Shu o'rinda e'tirof etish zarurki, nutqiy muloqot(ruscha: “речевое общение”, inglizcha: “diskurs”)ning tarkibi, avvalo, ikki qismga ajratilishi kerak: 1) lisoniy omillar (verbal) va 2) nolisoniy omillar (noverbal).

Nutq tarkibining lisoniy omillari deganda fonema, morfema, leksema, frazema, so'z birikmasi va gap qoliplarining nutqiy voqelanishlari nazarda tutilsa, nolisoniy omillar deganda imo-ishoralar, ma'no ifodalovchi turli harakatlar, belgi(ramz)lar, ohang, sukut kabilar nazarda tutiladi. Zero, nutqni jarayon sifatida o'rganish faqat muloqot (so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro axborot almashish, savolga yarasha javob berish) holatidagina tadqiq etilishi, shu jarayondagina lisoniy va nolisoniy omillarning voqelanishi xususida mulohaza yuritish mumkin. Demak, nutqiy muloqot mazmunan milliy, madaniy, maishiy, ma'rifiy, etnografik, tarixiy, etik, estetik, psixologik, falsafiy, huquqiy jihatlarni ifodalovchi, shaklan ichki va tashqi omillarga tayanuvchi lisoniy va nolisoniy omillarning murakkab sistemasidir.

Nutqiy muloqotning nolisoniy omillari (imo-ishoralar, ma'no ifodalovchi turli harakatlar, ohang, sukut) ba'zan nutqiy jarayonning ta'sirchanligini oshirishda lisoniy omillarga hamroh vazifasini bajaradi (masalan, “Assalomu alaykum” degan kalomga qo'shimcha tarzda qo'lini ko'ksiga qo'yish, “Xayr” deganda qo'l silkab qo'yish va h.), ba'zan esa nutqiy jarayon to'laligicha sof nolisoniy omillardan iborat bo'ladi. Masalan, *“Ayvonda atrofni kuzatib turgan Husayn Boyqaro saroy hovlisiga kirib kelayotgan mir Alisher Navoiyga ko'zi tushdi. Mir Alisher Navoiy to'xtadi, shoh tomonga qarab engil ta'zim qildi. Boshini biroz egilishiga mos tarzda ko'zlarini yumib ochgan shoh o'ng qo'lini boshi ustiga qo'ydi. Unga javoban vazir og'zini yarim ochib ko'rsatkich barmog'i bilan tiliga ishora qildi. Husayn Boyqaro “tushunarli” degandek bosh irg'adi va ichkariga kirib ketdi.”*

Bu o'rinda shoh vaziridan imo-ishora orqali “Boshga keladigan buncha tashvishlarning sababi nima?” deb so'radi. Dono vazir esa “Boshga kelar balolarning asosiy sababchisi – til”, deya javob qaytardi.

Suqrot dan “Dunyoda eng qiyin va og'ir ish nima?” deb so'raganlarida olim: “So'zlash”, deb javob bergan ekan. So'zlovchi

nimani kimga qanday aytish kerakligini hisobga olishi zarur, aks holda o‘z boshiga o‘zi tashvish keltirishi bor gap.

Fikr bayon qilish jarayoni, shubhasiz, ko‘p holatlarda lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og‘zaki shaklda moddiy voqelanishi bilan bog‘liq. Lekin lisoniy birliklarning voqelanishi bilan bog‘liq bo‘lmagan muloqot turlari ham oz emas. Shunga ko‘ra, lisoniy vositalarning moddiy shaklda voqelanmagan muloqot turlari nutqsiz muloqot deb baholanadi. An‘anamizda, hatto shariat ahkomlarida “Sukut – alomati rizo” etik-etetik tamoyili ham mavjud bo‘lib, u ham so‘zsiz muloqotning bir ko‘rinishi sifatida baholanishi lozim. Yozuvchi Tilavoldi Jo‘rayevning “Sharoit” nomli hikoyasiga e‘tibor qaratsak:

*...mashinada allanechuk sukunat zohir edi. Bu aslo araz, gina, o‘pka, ta’na, malomat sukuti emasdi. Bu sukut – roz sukuti edi...* (T.Jo‘rayev Qishloqliklar, 15-b.)

Muloqot ko‘p hollarda verbal, ya‘ni so‘z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so‘zsiz – noverbal vositalar (imo-ishora, har xil belgi, nishona, ramz, simvollar) orqali axborot berish bilan bog‘liq bo‘lib, bir-biriga ta‘siriga ko‘ra verbal yoki noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi.

Xalqda: “Gapirsang – gappingga qulsan, gapirmasang – qirolsan” degan maqol bejizga aytilmagan. Sukutda hikmat ko‘p. U inson ichki nutqning voqelanish shakli hamdir. Bu borada misollarga murojaat etamiz. Jumladan,

**ichki ikkilanish ma’nosida:** *Boloxonadagi yigitning “Bek akam janozaga ketganlar” deyishi yuragidagi xavotir uchqunini o‘t oldirdi.*

*–Kimning janozasi?– deb so‘radi ovozi titrab.*

*Yigit “bu shumxabarni aytish mumkinmi yo yo‘qmi?” degan mulohazada sukut saqladi. Aslida u “Bek akam yo‘g‘idilar-a”, deb gapni qisqa qilmog‘i joiz edi. Xayoli kutilmagan fojia bilan band bo‘lgani uchun beixtiyor ravishda “janozaga ketganlar” deb yuborgan edi. (T.Malik. Shaytanat. 4-kitob. –T., 2008. 4-b.);*

**so‘zsiz tasdiq ma’nosida:** Personajning sukut saqlashi savol beruvchining so‘rog‘i mag‘zidagi ma‘noni tasdiqlab turadi.

*–Kimning janozasi?–deb qayta so‘radi Manzura.*

*–Mahmud akamniki, – dedi yigit bir oz dovdiragan holda.*

*–Qaysi Mahmud? – Manzura “Qaysi Mahmud” ekanini anglagan bo‘lsa-da, “ishqilib men tanimaydigan boshqa odam bo‘lsin”, degan ilinjda qayta so‘radi. Yigitning navbatdagi sukuti bu ilinjga quvvat berganday bo‘lib, so‘ng esa g‘ippa bo‘g‘ib qo‘ya qoldi: Cauvrindining*

*fojiasi haqidagi shumxabar hushini oldi.* (T.Malik. Shaytanat. 4-kitob. –T., 2008. 4-b.)

**“eshitganlaringni mulohaza et” ma’nosida:** Odatda, sukutda jimlikdan avval gapirilgan gaplarni, bildirilgan mulohazalarni “hazm qil”, “mag‘zini chaq” degan mazmun ham zohir bo‘ladi. Masalan,

*Moshtabib “Bu hikmatlarning ma’nosini qalbingizga singdirib olishingiz uchun fursat beraman”, deganday so‘zdan to‘xtadi. Bu sukut Zohidga asqotdi. U ayrim izdihomlarda, ba‘zan yoshi ulug‘larning suhbatlarida shunga o‘xshash hikmatlarni eshitib qolar, biroq, “Yaxshi gap ekan”, demoqlikdan nariga o‘tmasdi.* (T.Malik. Shaytanat. 4-kitob. –T., 2008. 100-b.)

**“hayajonini bosib olmoq” ma’nosida:** Odatda, so‘zlovchi tinglovchi bilan muloqotga kirishish oldidan sukut saqlaydi. Suhbatdoshining muloqot jarayoniga tayyor bo‘lishini kutadi.

*So‘raydiganingizni so‘rang. Zohid, prokuratura tergovchisi, gumondagi shaxsdan “so‘rang” degan ijozatni olsa-da, darrov so‘roqqa tutmadi. “Zaripova hayajonini bosib olsin”, deb sukut saqladi, xuddi savol axtarayotganday ko‘rsatkich barmog‘i bilan chakkasini siladi. Zaripovaga bu sukut yoqmay “so‘ramaysizmi?” degan ma’noda tikilgach, Zohid dastlabki savolini berdi...* (T.Malik. Shaytanat. 4-kitob. –T., 2008. 184-b.)

**suhbatni uchinchi kishidan yashirin saqlash ma’nosida:** Bunda, odatda, suhbatdoshlar muloqotiga noxos aralashib qolgan keyingi kishiga suhbat mazmunini tegishli deb hisoblamaslik, undan sir tutish, ba‘zan uchinchi kishini suhbat mazmunidan asrash yoki aytilayotgan gaplarning chetga chiqishini istamaslik kabi ma’nolar sukut orqali ifodalanadi.

*–Sezish nima ekan, ko‘rib-bilganman. Sizni o‘ylasam hukamolardan meros bir rivoyat yodimga tushaveradi. Buni siz bilarsiz, o‘rni kelib qoldi, bu inilarimizga ibrat sifatida aytayin. Abdurahmon tabibning nabirasi dasturxon, katta patnisa meva-cheva ko‘tarib kirgani uchun bir oz sukut saqlandi.* (T.Malik. Shaytanat. 4-kitob. –T., 2008. 184-b.)

**qattiq ranjish ma’nosida:** Biror voqea-hodisadan yoki kishilardan qattiq ranjish oqibatida sukut saqlash nazarda tutiladi. Ba‘zan bunday sukut bir umr davom etishi ham mumkin. Bunday holat, ko‘pincha, inson o‘zini mag‘lub sezganda, intilgan narsasiga etish uchun o‘zida imkon topmaganda yoki o‘zini ilojisiz his etganda, biror narsadan yoki “yaqini” deb hisoblaganidan butkul voz kechganda ro‘y beradi.

*Men sendan intizor maktublar kutdim,*

*Yozmading, bunchalar og'ir bu sukut.  
Samarqandning uzun xotirlaridan...  
Nahot quvilganman, bo'lganman unut.  
Yozmading. Samarqand bog'larida jim,  
Kuzning xayollari yotarmu mahzun.*

*Tanish darvozaning tutqichlariga*

*Dardkash termularmi mensiz qolgan kun.* (H.Ahmedova she'ridan)

Aslida, sukut qilgan xotirjam, deb o'ylaysizmi? Sukut uchun sarflangan kuch gapirishga sarflangan kuchdan ancha ko'p bo'ladi. Sukut bilan jazolanish – eng og'ir jazo.

**qattiq tanqid ma'nosida:** Ch.Bakston shunday yozadi: “Ba'zan sukut ham eng qattiq tanqid o'rniga o'tadi”. Shuningdek, nafratli sukutdan ortiq xo'rlovchi javob bo'lmaydi. Masalan,

*Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi. Ul bundan so'ngg'i ko'rguligini tamom ma'nosi bilan onglab, ma'nosiz bu savollarga javob berib o'lturishdan sukutni xayrlik topdi. Go'yo o'zining bu sukuti bilan Musulmonqulga ma'nolik bir javobni ifoda qilar edi. Chindai ham Musulmonqul bu sukutdan tahqirlandi, tutuni ko'kka ko'tarilar ekan baqirdi:*

– *Nega javob bermaysan?! (A.Qodiriy. O'tkan kunlar. –T., 1994. 123-b.)*

**sukut – kuchli andisha belgisi:** O'zbekona tarbiya, kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'lish, ba'zan nohaq bo'lishsa-da, ota-onaga gap qaytarmaslik – sukut saqlash kuchli andisha belgisini ifodalaydi.

*Otabek hamon sukutda, a O'zbek oyim bo'lsa boshi bilan "shundog'" ishorasini berar edi. Yusufbek hoji yuqorida o'tkan gaplarni quruq va asossiz so'zlamag'an, balki shu turmushning rukn va asosini bir daraja aytib o'tkan, Otabek esa buni shu muhitning bir o'g'li bo'lib eshitkan edi. To'g'risi ham ul dadasi tomonidan so'zlangan haligi qonunga qarshi chiqish uchun lozim bo'lg'an kuchka molik emas; bas, kuchsizlikning natijasi esa sukut edi.* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar. –T., 1994. 136-b.)

Ba'zan so'zlovchi tinglovchilar unga xayrixoh emasligini sezganda ham sukut saqlaydi. Zero, bunday sharoitda “sukut har qanday gapdan ham ma'noli bo'ladi”. (Monteske)

*Hoji sukut qildi, o'zining shunchalik gaplarini havoga ketib turganini, majlisning Niyoz qushbegi ruhida borganligini yaxshi sezdi. Mundan boshqa Niyoz qushbegining bunday bir fikrga kelishi uchun uni*



*nima majbur qilgan – buni ham ochiq ongladi.* (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. –T., 1994. 275-b.)

Nutqiy muloqotda lisoniy birlik va uning turli hamrohlari – juda ko‘p hollarda mohiyatan nolisoniy birliklar – birgalikda, ma‘lum bir maqsadga erishish uchun qo‘llanilishini yuqoridagi misollarda sukut orqali ko‘rib o‘tdik. Garchi nolisoniy birliklarning miqdori va turi lisoniy birliklardan ko‘p bo‘lsa ham, baribir lisoniy birlik markazda turadi, shuning uchun nutqiy muloqot tarkibiy qismlarini o‘rganuvchi turli fanlar ichida tilshunoslik fanining hissasi ko‘proq va etakchidir – muloqot lisoniy birlikning amaliy qo‘llanilishi va uning samarasidir.

Kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, *sukutda ichki nutqning yuzga yaqin ma‘nolari voqelanadi.* Shunday ekan, sukut birligiga o‘ta murakkab, o‘ziga xos situativlik (oniylik), muayyan kommunikantlar, zamon va makon, nutqiy shart-sharoit, vaziyat, maqsad, istak, sabab va oqibat bilan uzviy bog‘langan o‘ta qisqa bir zamonda sodir bo‘ladigan pragmatik sistema hisoblangan nutqiy muloqotning asosiy tarkiblaridan biri sifatida qaralishi to‘g‘ri yo‘ldir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021. –555 b.

2. Tafakkur gulshani/ V.Vorontsov kompozitsiyasi/ Sh.Abdurazzoqova tarjimasini. –T.: G‘.G‘ulom, 1989. –274 b.

3. Юлдашева Д. Роль молчания в речи// Образование и инновационные исследования. № 1 (2020).

4. Юлдашева Д. Н. Сукут нутқий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3.

5. Юлдашева Дилором Нигматовна. Сукут – нутқий алоқа компоненти. НамДУ илмий ахборотномаси. – Научный вестник НамГУ 2021 йил 7-сон. – 407–414-б.

6. <http://library.ziyounet.ru/book/119112>

## MUNDARIJA

<b>Inomjon Azimov</b>	
So‘zboshi . . . . .	4
<b>Sobirov Abdulhay</b>	
Davlat tilining dolzarb muammolari va ularning yechimlari. . . . .	7
<b>Inomjon Azimov</b>	
Jadidlar faoliyatida o‘zbek adabiy tili va adabiy til uchun tayanch dialekt masalasi . . . . .	13
<b>Xudoyberganova Durdona</b>	
Kognitiv tilshunoslik terminlarining leksikografik talqini xususida mulohazalar . . . . .	19
<b>Abdiyev Murodqosim</b>	
Davlat tili – davlat ramzi. . . . .	25
<b>Jo‘rayeva Bibish</b>	
Mavjlargandan aylanay, tilim . . . . .	30
<b>Yuldasheva Dilorom</b>	
Sukut – nutqiy muloqotning nolisoniy vositasi . . . . .	34
<b>Ermatov Ixtiyor</b>	
Terminologiyada mikro-, medio- va makroqurilmalar. . . . .	40
<b>Zokirov Muxtorali</b>	
Leksik-semantik interferensiya xususida. . . . .	48
<b>Rahimov Usmonjon</b>	
Pragmatik tuzilish elementlari tadqiqi. . . . .	54
<b>Jo‘rayeva Bibish, Kilichev Akram</b>	
Antroposentrizmning o‘ziga xos xususiyatlari. . . . .	61
<b>Bobojonov Farhod</b>	
Hujjat matniga qo‘yiladigan talablar . . . . .	67

<b>Cho‘lliyeva Gulchehra</b>	
Og‘zaki nutq ma’nosi ohang rang-barangligiga bog‘liq . . . . .	446
<b>Nargiza Maxmudova</b>	
O‘zbek va ingliz tilshunosligida ornitonimlarning lingvistik jihatdan tadqiq etilishi . . . . .	454
<b>Aminova Amira</b>	
Insondagi ijobiy xarakter-xususiyatni baholovchi maqollarning semantik guruhlari . . . . .	459
<b>Mo‘ydinov Qodirjon</b>	
O‘zbek tili sud nutqidagi ayrim frazeologizmlarning qo‘llanishiga doir ba’zi mulohazalar . . . . .	466
<b>Mo‘ydinov Qodirjon</b>	
O‘zbek tilida yuridik terminlar . . . . .	469
<b>Usmonova Shahnoza</b>	
Abdurauf fitrat publitsistikasining leksik xususiyatlari . . . . .	472
<b>Shermatova Dilfuza</b>	
Texnika yo‘nalishi talabalarida til va nutqiy kompetensiyaning rivojlantirish metodikasi . . . . .	477
<b>Axmadjonov Nurbek</b>	
Badiiy matnda ba’zi onomastik birliklarning pretsedent nomlar sifatida qo‘llanishi . . . . .	481
<b>Tuxtasinova Zilolaxon</b>	
O‘zbek va ingliz tillarida haqoratni ifodalovchi lug‘aviy birliklarning tasnifi . . . . .	486

# **“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”**

mavzusidagi respublika uchinchi ilmiy-amaliy anjumani

Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning  
o‘zlari mas’uldirlar.

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 13.10.2023.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 19,1. Shartli bosma taboq 19,5.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)

t.me/Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10